



## XALQARO HUQUQDA ATROF-MUHITGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN DAVLATLAR JAVOBGARLIGI ASOSLARI VA MUAMMOLAR

**Abduraxmonova Iroda Zayniddin qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro  
huquq yo'nalishi magistratura bosqichi talabasi e-mail:  
abduraxmonovairoda14@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20605994>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-iyun 2026 yil  
Ma'qullandi: 06-iyun 2026 yil  
Nashr qilindi: 09-iyun 2026 yil

### KEYWORDS

*ekologik zarar, davlatlarning javobgarligi, transchegaraviy ifloslanish, zarar yetkazmaslik prinsipi, ifloslantiruvchi to'laydi, ekologik xavfsizlik, ekotsid, kompensatsiya.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqola xalqaro huquqda atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlarning javobgarligi masalasini o'rganishga bag'ishlangan. Global ekologik muammolarning kuchayib borishi, xususan, transchegaraviy ifloslanish, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning degradatsiyasi va biologik xilma-xillikning qisqarishi davlatlarning ekologik majburiyatlarini yanada dolzarb hamda murakkab masalaga aylantirmoqda. Shu sababli ekologik zarar uchun xalqaro-huquqiy javobgarlikning mohiyati, huquqiy asoslari va uni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq muammolarni aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi xalqaro huquqda atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlar javobgarligining huquqiy asoslarini tahlil qilish hamda uni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy metod, tarixiy yondashuv hamda holatlarni o'rganish usullari qo'llanildi. Xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar, sud qarorlari va ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro huquqda davlatlarning ekologik zarar uchun javobgarligiga oid asosiy prinsip va me'yorlar shakllangan bo'lsa-da, ularning majburiy ijro mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Zararni isbotlashning murakkabligi, kompensatsiya mezonlarining yagona emasligi, siyosiy manfaatlarining ustunligi hamda nazorat mexanizmlarining zaifligi asosiy muammolar sifatida aniqlandi. Olingan natijalar asosida ekologik zarar uchun davlatlar javobgarligini kuchaytirish, "ekotsid" tushunchasini xalqaro jinoyat sifatida e'tirof etish, maxsus xalqaro ekologik sud*

*(tribunal) tashkil etish hamda kompensatsiya va monitoring tizimlarini standartlashtirish zarurligi asoslab beriladi. Bu esa xalqaro ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.*

So'nggi o'n yilliklardagi obal ekologik muammolar tobora kuchayib bormoqda. Transchegaraviy ifloslanish, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi jarayonlar nafaqat milliy, balki xalqaro xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalarini ham dolzarb qilmoqda. Ushbu muammolar davlatlarning atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha majburiyatlarini yanada murakkablashtirmoqda va xalqaro huquqiy tizim doirasida javobgarlik masalasini keskin dolzarb qiladi.

Bugungi kunda ekologik zarar masalasi xalqaro hamjamiyat uchun eng og'riqli muammolardan biriga aylangan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, tashqi havo ifloslanishi har yili taxminan 5,7 million insonning erta vafotiga sabab bo'lmoqda, bu esa global salomatlik inqirozining ekologik omillar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. 2019-yil yakunlariga ko'ra, atrof-muhitning ifloslanishi tufayli ayrim davlatlarda iqtisodiy yo'qotishlar yalpi ichki mahsulotning 8-10 foizigacha yetgan. Masalan, Bangladeshda ekologik omillar, xususan, havo va suvning ifloslanishi oqibatida iqtisodiy zarar 62 milliard AQSh dollarini tashkil etgan - bu mamlakat YIMining 8,3 foizidan ko'p.

O'rmon yong'inlari, brakonerlik, noqonuniy foydali qazilmalarni qazib olish, suv havzalarining ifloslanishi kabi antropogen omillar dunyo miqyosida har yili milliardlab dollar miqdorida ekologik zarar keltirmoqda. Shu bilan birga, transchegaraviy ifloslanishning kuchayishi - tutun, suv ifloslanishi, kislota yog'inlari va cho'l tuprog'ining ko'chishi kabi hodisalar davlatlar o'rtasida javobgarlikning xalqaro-huquqiy mexanizmlarini yanada muhimlashtirmoqda.

Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, ekologik zarar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham davlatlar zimmasiga javobgarlik yuklaydigan, chuqur huquqiy yondashuvni talab qiladigan global muammadir. Shu sababli ekologik zarar uchun davlatlarning xalqaro huquq normalariga muvofiq javobgarligini o'rganish bugungi kunda nazariy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarbdir.

Xalqaro huquqda davlatlar ekologik zarar uchun javobgar bo'lishi mumkinligi nazariy jihatdan tan olingan bo'lsa-da, amaliyotda bu javobgarlikni amalga oshirish qator murakkabliklarga duch keladi. Bunga transchegaraviy zararlarni isbotlashdagi qiyinchiliklar, kompensatsiya mexanizmlarining yagona emasligi, siyosiy manfaatlarning ustunligi va xalqaro nazoratning cheklanganligi kiradi. Shu sababli davlatlarning ekologik javobgarligi masalasi faqat normativ-huquqiy asoslarda emas, balki amaliyotdagi muammolarni hisobga olgan holda ham o'rganilishini talab qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi xalqaro huquqda atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlar javobgarligining huquqiy asoslarini tahlil qilish va uni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot predmeti sifatida ekologik zarar bilan bog'liq holda davlatlarning xalqaro huquqiy majburiyatlari, javobgarlik mexanizmlari, kompensatsiya shakllari hamda sud va arbitraj amaliyoti tanlangan. Mazkur tadqiqot nafaqat

nazariy jihatdan, balki xalqaro ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida ham amalga oshiriladi.

Ekologik inqirozlar va davlatlar javobgarli bir qator chet et olimlari ,jumladan, L.Nguyen, Buyuk Britaniyaning bir qator huquqshunoslari tomonidan yozilgan kitoblarida, Cambridge va Columbia univesitetlari olimlari tomonidan yozilgan maqolalarda o'z aksini topgan.Shuningdek, shu paytgacha Xalqaro sud hamda Xalqaro Dengiz Huquqi Tribunali tomonidan ko'rib chiqilgan keyslar va O'zbekistonda sodir bo'lgan eng katta ekologik inqiroz Orol dengizi qurib qolishi kabi keyslar bilan boyitilgan. MDH doirasida E.Timofeev, A.Subbotin, Brinchuk, Lukashuk kabi insonlarning xalqaro javobgarlik to'g'risida fikrlarini o'z kitoblari va maqolalarida bildirib o'tgan o'tishgan.

#### Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda xalqaro huquqda atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlar javobgarligini ilmiy asosda tahlil qilish uchun bir nechta metodlar qo'llanildi.

Birinchidan, normativ-huquqiy tahlil orqali xalqaro shartnomalar, deklaratsiyalar va xalqaro sud qarorlari o'rganildi. Ushbu metod xalqaro huquq normalarining mazmuni va majburiy kuchini aniqlashga xizmat qildi.

Ikkinchidan, qiyosiy-huquqiy metod yordamida turli mamlakatlarning ekologik javobgarlik bo'yicha yondashuvlari va amaliy tajribasi taqqoslandi. Bu davlatlar o'rtasidagi yuridik farqlarni va ularning xalqaro majburiyatlarga qanday munosabatda bo'lishini aniqlashga imkon berdi.

Uchinchidan, tarixiy metod orqali ekologik javobgarlik institutining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Shu bilan birga, holatlarni tahlil qilish (case study) usuli qo'llanilib, "Trail Smelter" (AQSh- Kanada), "Pulp Mills" (Argentina-Urugvay), "Chernobyl" (SSR-xalqaro) va boshqa ekologik falokatlar yuridik jihatdan tahlil qilindi. Mazkur metodlarning kombinatsiyasi tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligi va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

#### Tadqiqot natijalari

Xalqaro huquq subyekti hisoblangan davlat o'z hududida suverenitetga ega hisoblanadi. Ammo suverenitetga ega degani bu – o'z yurisdiksiyasi ostidagi hududda ekotizimdan xohlagan usulda foydalanadi degan ma'noni anglatmaydi. O'z hududidagi tabiiy resurslar va boyliklardan foydalanishda fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat tashkilotlari ham mas'uliyatga ega bo'lishi lozim. Bunda albatta davlat xalqaro standartlarga asosan o'z milliy qonunchiligiga ekologik standartlar va me'yorlarni singdirgan bo'lishi lozim hamda nazorat samarali tashkil qilishi lozim. Xalqaro huquqning subyekti hisoblanganlik, bu davlatga xalqaro doirada ma'lum huquq va majburiyatga egaligini ko'rsatadi. Davlat o'z hududidan tashqarida ham atrof-muhit xavfsizligiga nisbatan majburiyatga egaligini keltirib chiqaradi. Bu ekologiya faqatgina bir fuqaroning yoki bir davlatning foydalanadigan atrof-muhiti doirasida mas'uliyatli deb talqin qiladigan bo'lsak, unda inson va tabiat o'rtasida uzviy bog'lik juda zaif bo'lib qoladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni xalqaro huquqiy asoslarda tahlil qilinsa, davlatlarning atrof-muhit uchun mas'uliyati va javobgarligi ko'plab xalqaro shartnomalarda aks ettirilgan. Xalqaro doirada ekologik xavfsizlik uchun harakatlar

XX arsning 80-yillarning boshlarida boshlangan. Misol uchun, 1972-yil qabul qilingan Stokgolm Deklaratsiyasi BMTning atrof-muhit himoyasi bo'yicha birinchi muhim xalqaro konferensiyasida qabul qilingan. Uning 21-prinsipiga ko'ra: "Davlatlar o'z yurisdiksiyasi yoki

nazorati ostidagi faoliyat boshqa davlatlar yoki milliy yurisdiksiya chegaralaridan tashqaridagi hududlarning atrof-muhitiga zarar yetkazmasligini ta'minlash majburiyatiga egadirlar"<sup>1</sup>. Bu prinsip "zarar yetkazmaslik" (no harm principle) tamoyili sifatida tanilgan.

Mazkur "zarar yetkazmaslik" prinsipi keyinchalik xalqaro shartnoma huquqida ijobiy norma sifatida mustahkamlandi - 1982-yildagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Dengiz huquqi to'g'risidagi Konvensiyasida (UNCLOS)<sup>2</sup> va Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyada (CBD)<sup>3</sup> ham aks etgan. 1992-yil qabul qilingan Rio Deklaratsiyasi 2-prinsipida: "Davlatlar tabiiy resurslar ustidan suveren huquqlarga ega, lekin ular o'z faoliyatlari bilan boshqa davlatlarning yoki xalqaro hamjamiyatning atrof-muhitiga zarar yetkazmaslik majburiyatiga ega"<sup>4</sup>. Ushbu xalqaro ekologik huquq sohasining yetakchilaridan Philippe Sands Stokgolm Deklaratsiyasining 21-prinsipi va Rio Deklaratsiyasining yuqorida keltirilgan prinsiplari o'zida majburiyatlarni ifodalaydi - "Bu prinsip o'zaro manfaatlarni hurmat qilish talabiga bog'liq bo'lib, u hozirda Stokgolm Deklaratsiyasining 21-prinsipi va Rio Deklaratsiyasining 2-prinsipida aks etgan: "Sic utere tuo ut alienum non laedas" ya'ni, "O'z huquqlaringdan boshqalarga zarar yetkazmaslik sharti bilan foydalan" talqinida fikr yuritadi<sup>5</sup>. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda aytish mumkinki, har bir huquq sohasi prinsiplarga ega bo'ladi va normalar ham, javobgarlik ham ushbu prinsiplarga tayangan holda ishlaydi.

Lekin ushbu deklaratsiya, konvensiya va shartnomalar ko'pchiligida prinsip yoki majburiyatlar belgilangan, ammo majburiylik xususiyatini qat'iy belgilovchi ijro va nazorat mexanizmi mavjud emas.

Shu sababli 2001 yilda, Xalqaro huquq komissiyasi (ILC) BMT Bosh Assambleyasiga (BA) Davlatlarning xalqaro huquqbuzarliklar uchun javobgarligi haqidagi loyihaviy moddalar (ILC Draft Articles)ni ko'rib chiqish uchun taqdim etdi. Ushbu loyihaviy normalar biror davlat tomonidan amalga oshirilgan va unga nisbat berilishi mumkin bo'lgan hamda xalqaro majburiyatning buzilishini tashkil

1 Principle 21 of the Stockholm Declaration on the Human Environment, 1972.

2 Article 194 (2) of the United Nations Convention on the Law of the Sea, 10 December 1982.

3 Art. 3 of the Convention on Biological Diversity, 5 June 1992.

4 Principle 2 of the Rio Declaration on Environment and Development of 12 August 1992.

5 Sands P. Principles of International Environmental Law. New York: Cambridge University Press, 2003, 1116 pages etuvchi harakatlar uchun javobgarlik mezonlarini belgilaydi. ILC Draft Articles an'anaviy, davlat markazli xalqaro huquq tizimi nuqtai nazaridan yondashgan. Masalan, 42-moddada quyidagicha belgilangan:

"Bir davlat, agar zarar ko'rgan davlat bo'lsa, boshqa davlatning javobgarligiga da'vo qilish huquqiga ega"<sup>6</sup>. Huquqshunos Brown Weiss ushbu loyihani xalqaro huquqning izchil rivojlanishining bir qismi deb atagan<sup>7</sup>.

Shunday qilib, bu ILC maqolalari davlatlar o'z zimmasiga olgan asosiy xalqaro majburiyatlar buzilganda, qanday qilib bir davlat boshqa davlatni javobgarlikka tortishi mumkinligini aniqlab beradi. Ushbu xalqaro huquqiy asos to'g'ridan-to'g'ri xalqaro shartnoma yoki konvensiya sifatida qabul qilinmadi, ya'ni, unga a'zo davlatlarning umumiy kelishuvi bilan kuchga kirgan konvensiya emas. Ushbu loyihaviy normalar bajarilishi majburiy bo'lgan huquqiy norma sifatida emas, balki xalqaro odat huquqi va umumiy prinsiplarni ifodalovchi

yirik huquqiy hujjat sifatida qaraladi. Haqiqatdan ham bu lohiya xalqaro huquqdagi bo'shliqni to'ldirishga harakat qilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Hozirgacha atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro huquqiy majburiyatlarning kengayishiga qaramay, ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun xalqaro huquqiy choralar hali ham yetarlicha rivojlanmagan degan fikr ilgari suriladi. Davlat atrof-muhitga zarar yetkazgani uchun javobgarlikka turli yo'llar bilan tortilishi mumkin.

Atrof-muhitga yetkazilgan zarar turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin, masalan, iqlim o'zgarishi, ifloslanish yoki biologik xilma-xillikning yo'qolishi bo'lishi mumkin. Bunday zararlarni tartibga solishdagi eng qiyin masalalardan biri davlatlar o'z fuqarolarining asosiy ehtiyojlarini, jumladan, energiya ishlab chiqarishni qondirish uchun muqarrar tarzda zararli bo'lishi mumkin bo'lgan faoliyatlar bilan shug'ullanishi kerakligi va bu faoliyatlarning atrofmuhitga

6 Art.42 of ILC Draft Articles on Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts.

7 Edith Brown Weiss. Invoking State responsibility in the 21st Century, AJIL 96 (2002), 798-803. xavf tug'dirishi o'rtasidagi muvozanatni yo'qotishga majbur bo'lishidir. Natijada bu davlat javobgarligi huquqi duch kelayotgan murakkab muammolardan biridir.

Agar atrof-muhitga yetkazilgan zarar noqonuniy harakat tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, davlat javobgarligi yuzaga keladi. Ko'pincha atrof-muhitga zarar xususiy subyektlar tomonidan yetkaziladi, lekin agar bu zararli faoliyat davlatga bog'liq tarzda amalga oshirilgan bo'lsa va davlatga mansub xatti-harakatlar orqali sodir bo'lgan bo'lsa, unda zarar ko'rgan tomon davlatni javobgar qilishi mumkin.

Atrof - muhitga zarar yetkazishni xalqaro huquqda 2 ta guruhga tasniflasak xato bo'lmaydi. 1.Noqonuniy harakat yuzaga kelishiga olib keladigan turli holatlar mavjud, masalan, qonuniy faoliyatdan noqonuniy zarar yetkazilishi (Trail Smelter ishi bunga misol bo'la oladi, bu ishda ruda eritish - o'zi qonuniy faoliyat hisoblangan). 2.Noqonuniy faoliyatdan noqonuniy zarar yetkazilishi (masalan, ommaviy qirg'in qurollaridan foydalanish, xavfli chiqindilarni belgilangan huquqiy rejimga zid ravishda harakatlantirish va boshqalar). Har ikkala holatda ham, zarar manbasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, agar bu zarar davlatga mansub deb topilsa va sababiy bog'liqligi aniqlansa, davlat javobgarlikka tortiladi.

Xalqaro huquqda sud amaliyoti muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xalqaro shartnomalar, xalqaro odat huquqlari va boshqa huquqiy asoslarni mustahkamlaydi va xalqaro huquqiy javobgarlikning amaliy pretsedentiga aylanishida muhim rol o'ynaydi.

Misol uchun atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni bo'yicha eng muhim sud amaliyotlari Trail Smelter loyihasi, Gabcikovo-Nagymaros, Pulps Mills ishi va boshqalardir. 1941-yildagi Trail Smelter arbitraj ishi davlat javobgarligining ushbu zarar yetkazmaslik prinsipini birinchi marta muhim prinsip sifatida tan oldi. Bu arbitraj AQSh va Kanada o'rtasida Britaniya Kolumbiyasidan AQShning g'arbiy qismiga oqib o'tuvchi, chegaralarni kesib o'tuvchi ifloslanish bo'yicha yuzaga kelgan nizoni hal qildi hamda transchegaraviy zararlarni bo'yicha birinchi ish hisoblanadi. Arbitraj hay'ati xalqaro huquq davlatlarga o'z hududidan chiqib ketadigan ifloslanishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha faollik majburiyatini yuklaydi, deb xulosaga keldi va shunday dedi:

"Xalqaro huquq prinsiplari bo'yicha hech bir davlat o'z hududidan boshqa davlat hududiga zarar yetkazuvchi tutunlar chiqarilishiga yo'l qo'yishga yoki bunday foydalanishga

haqli emas, ayniqsa zarar jiddiy bo'lsa va bu zarar aniq va ishontiruvchi dalillar bilan tasdiqlansa"8.

Gabcikovo-Nagymaros ishi, Vengriya va Sobiq Chexoslovakiya (keyinchalik Slovakiya) o'rtasida shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqqan. Loyihada eng yirik gidroenergetika va kanallar qurish rejalashtirilgan, ammo Vengriya loyiha amalga oshirilishining ekologik xavfli ekanini aytib, uni to'xtatishga qaror qildi, bu esa o'z navbatida ikki davlat o'rtasida jiddiy nizoga olib keldi. Slovakiya esa loyihani yakka o'zi davom ettirishga kirishdi. Natijada Dunay daryosidagi muvozanat izdan chiqib, daryo va uning atrofidagi ekotizim buzildi. 1997-yil Xalqaro sud (ICJ) tomonidan chiqarilgan qarorga ko'ra, ikki tomon ekologik xavflarni oldini olish va ekotizimni qayta tiklashga majburiyat olib, kelishuv yo'li bilan loyihani davom ettirish yoki to'xtatish haqida qaror chiqardi.

Yuqoridagilar kabi Pulp Mills ishi va boshqa ishlar xalqaro ekologik huquqda zarar yetkazmaslik, oldini olish va ifloslantiruvchi to'laydi prinsiplarini o'rnini mustahkamlab, xalqaro huquqda odat darajasiga ko'targan.

Xalqaro huquqda atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlar javobgarligining xalqaro huquqiy asoslari quyidagi asosiy muammolarga ega:

Birinchidan, xalqaro ekologik javobgarlikni belgilab bergan yagona xalqaro huquqiy asos mavjud emas, konvensiya, shartnoma va deklaratsiyalarda faqatgina prinsiplar va ma'lum bir umumiy normalar (soft law) belgilangan.

Ikkinchidan, xalqaro ekologik shartnomalarda qat'iy javobgarlik, ijro va nazorat mexanizmi deyarli mavjud emas.

Uchinchidan, ekologik zararlarni baholashda yagona standartlarni o'z ichiga oluvchi xalqaro huquqiy asoslar belgilanmagan. Ekologik ta'sirlarni baholash talabini belgilovchi Espoo konvensiyasi, Rio Deklaratsiyasi va boshqalar ekologik

8 Knox, John H., *The Flawed Trail Smelter Procedure: The Wrong Tribunal, the Wrong Parties, and the Wrong Law*. *TRANSBOUNDARY HARMS IN INTERNATIONAL LAW: LESSONS FROM THE TRAIL SMELTER*

*ARBITRATION*, Rebecca Bratspies and Russell Miller, eds., 2005, 26 pages. Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=665682>

ta'sirlarni baholashning umumiy tamoyillarini va oldini olishda xabardorlik hamda hamkorlik prinsiplari bilan cheklangan. Atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni baholash bo'yicha yagona huquqiy asos va uning metodologiyasi mavjud emas.

To'rtinchidan, ishni ko'rib chiqishda Xalqaro sud yurisdiksiyasi sun'iy to'siqlarga uchrashi va uning qarorlarining ijrosidagi muammolar.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, xalqaro huquqda davlatlarning ekologik zarar uchun javobgarligi nazariy jihatdan tan olingan bo'lsa-da, amaliyotda uning samarali ijrosi hali to'liq ta'minlanmagan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ekologik zararlarni isbotlashning murakkabligi, kompensatsiya mexanizmlarining yagona emasligi, siyosiy manfaatlarining ustunligi va xalqaro nazoratning zaifligi asosiy muammolar hisoblanadi.

Ushbu holatlar xalqaro ekologik huquq tizimini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Shu maqsadda quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Davlatlarning ekologik javobgarligini kuchaytirish va "ekotsid" tushunchasini xalqaro jinoyat sifatida tan olish;

Maxsus xalqaro ekologik sud (tribunal) tashkil etish, majburiy ijro mexanizmlarini yaratish;

Ekologik zararlar va ta'sirlarni baholash uchun xalqaro ekspertlardan iborat mintaqaviy komissiyaviy markazlar yaratish;

Kompensatsiya va monitoring tizimlarini standartlashtirish, global ekologik fondlar orqali moliyaviy ta'minotini oshirish.

Ushbu choralar xalqaro ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash va davlatlar o'rtasida adolatli ekologik javobgarlik tizimini shakllantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

#### References:

П.Р.Боровик Международно-правовая ответственность государства за вред причиненный окружающей среде

Лукашук, И. И. Право международной ответственности / И. И. Лукашук. – М. : Волтерс Клувер

М.М.Бринчук Экологическое право учебник. Часть особенная:курс лекций.АГУ.2008

Powell, James Lawrence (2011). New York: Columbia university press

Xue Hanqin, Transboundary Damage in International Law, Cambridge University 2003

Jutta Brunne, The Responsibility of States for Environmental Harm in a Multinational Context- Problems and Trends

L.N.Nguyen-The development of the sea by Unclos dispute settlement bodies

House of Lords International Relations and Defence Committee HL Paper 159 2nd Report of Session 2021

Principle 21 of the Stockholm Declaration on the Human Environment, 1972.

Article 194 (2) of the United Nations Convention on the Law of the Sea, 10 December 1982.

Art. 3 of the Convention on Biological Diversity, 5 June 1992.

Principle 2 of the Rio Declaration on Environment and Development of 12 August 1992.

Sands P. Principles of International Environmental Law. New York: Cambridge University Press,2003,1116 pages

Art.42 of ILC Draft Articles on Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts.

Edith Brown Weiss. Invoking State responsibility in the 21st Century, AJIL 96 (2002), 798-803.

Knox, John H., The Flawed Trail Smelter Procedure: The Wrong Tribunal, the Wrong Parties, and the Wrong Law. TRANSBOUNDARY HARMS IN INTERNATIONAL LAW: LESSONS FROM THE TRAIL SMELTER

ARBITRATION, Rebecca Bratspies and Russell Miller, eds., 2005, 26 pages.Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=665682>

Urugvay va Argentina o'rtasida tuzilgan Urugvay daryosi to'g'risidagi Status [https://www.internationalwaterlaw.org/documents/regionaldocs/Uruguay\\_River\\_Status\\_tute\\_1975.pdf](https://www.internationalwaterlaw.org/documents/regionaldocs/Uruguay_River_Status_tute_1975.pdf)

BMT Dengiz huquqi konvensiyasi (UNCLOS)

[https://www.un.org/depts/los/convention\\_agreements/texts/unclos/unclos\\_e.pdf](https://www.un.org/depts/los/convention_agreements/texts/unclos/unclos_e.pdf)

"Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida" konvensiya <https://lex.uz/docs/-2749728>

Transchegaraviy Tutun Ifloslanishi To'g'risidagi Shartnoma  
[https://asean.org/wpcontent/uploads/2021/01/Orol muammosini hal qilish bo'yicha](https://asean.org/wpcontent/uploads/2021/01/Orol_muammosini_hal_qilish_bo'yicha) O'rta Osiyo davlatlari kelishuvi  
<https://faolex.fao.org/docs/pdf/mul67055.pdf>



INNOVATIVE  
ACADEMY